



The position of UN human rights treaty bodies in international law

Nikhola MIRZAEVA¹

Tashkent State University of Law

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2025
Received in revised form
15 May 2025
Accepted 25 May 2025
Available online
15 June 2025

Keywords:

human rights,
treaty bodies,
international human rights
conventions.

ABSTRACT

This article analyzes the legal status and structure of the UN human rights treaty bodies and discusses their role in the international human rights protection system. Furthermore, this article examines the mandates and competencies of the UN human rights treaty bodies.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss5/S-pp21-26>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

BMTning inson huquqlari bo'yicha shartnomaviy organlarining xalqaro huquqda tutgan o'rnini

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

inson huquqlari,
shartnomaviy organlar,
xalqaro inson huquqlari
bo'yicha konvensiyalar.

Mazkur maqolada BMTning inson huquqlari bo'yicha shartnomaviy organlarining huquqiy maqomi va tuzilishi tahlil qilinadi va ularning xalqaro inson huquqlarini himoya qilish tizimidagi tutgan o'rnini muhokama qilinadi. Bundan tashqari ushbu maqolada BMT inson huquqlari bo'yicha shartnomaviy organlarining vakolatlari ham ko'rib chiqiladi.

Роль договорных органов ООН по правам человека в международном праве

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

права человека,
договорные органы,
международные
конвенции по правам
человека.

В статье анализируется правовой статус и структура договорных органов ООН по правам человека, а также обсуждается их роль в международной системе защиты прав человека. Кроме того, в статье также рассматриваются полномочия договорных органов ООН по правам человека.

¹ Doctoral student, Tashkent State University of Law. E-mail: mirzayevanihola2@gmail.com

KIRISH

BMTda inson huquqlarini himoya qilish tizimi 1948-yilda Inson Huquqlari bo'yicha Umumjahon Deklaratsiyasining qabul qilinishiga borib taqaladi. Ushbu deklaratsiyada birinchi marotaba BMT Nizomidan olingan "Inson huquqlari"

tushunchasi ustida ishlab chiqildi va tizimlashtirildi. Inson Huquqlari bo'yicha Umumjahon Deklaratsiyasida shaxslarning fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy huquqlari sanab o'tilgan. Ushbu huquqlar keyinchalik ajratildi va ikkita majburiy shartnomaga kiritildi (Fuqarolik va Siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Konvensiya va Iqtisodiy, Ijtimoiy va Madaniy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Konvensiya)

Inson huquqlari bo'yicha konvensiyalarning ko'pchiligi ma'lum bir maxsus yo'nalishlarga (misol uchun diskriminatsiya) yoki zaif qatlamning himoyasiga (misol uchun ayollar, bolalar, migrant mehnatkashlar yoki imkoniyati cheklanganlar) [1].

Shartnoma yoki konvensiya xalqaro huquqiy instrument hisoblanadi. Shartnoma a'zo davlatlarga majburiy yuridik majburiyat yuklaydi. Davlatlar ushbu shartnomani ratifikatsiya qilish orqali unga a'zo bo'ladilar. Bu davlatning o'z xohishi bilan shartnoma qoidalaridagi majburiyatni qabul qilganligini anglatadi. Davlat shartnomani ratifikatsiya qilganidan so'ng, undagi qoidalarni ichki qonunchiligiga implementatsiya qilishi kerak bo'ladi. Davlatning ichki qonunchiligidagi qoidalar xalqaro shartnoma bilan muvofiq bo'lishi lozim va unga zid kelmasligi kerak.

Ba'zi holatlarda davlatlar shartnomaning ma'lum bir moddalariga nisbatan ogovorkadan e'lon qilishlari mumkin. Agar aloqador moddaga nisbatan ogovorka ma'qul deb topilsa, davlat ushbu modda bo'yicha majburiyatga ega deb hisoblanmaydi. Agarda ogovorka tegishli shartnomaning mazmuniga zid deb topilsa, u qabul qilingan deb hisoblanmaydi. Davlat esa, ushbu modda bo'yicha majburiyatlarni bajarishi lozim bo'ladi.

Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalarning ba'zilari qo'shimcha protokollar bilan kengaytirilgan. Ushbu protokollar ma'lum bir sohada himoyani oshirishi yoki nazorat qiluvchi qo'shimcha qoidalarni o'zida jamlagan bo'lishi mumkin. Davlat qo'shimcha protokol bo'yicha majburiyatni olishi uchun uni ham alohida ratifikatsiya qilishiga to'g'ri keladi [2].

METODOLOGIYA

Tadqiqot davomida BMTning inson huquqlari bo'yicha shartnomaviy organlarining xalqaro huquqda tutgan o'rnini xalqaro konvensiyalar, mintaqaviy shartnomalar hamda xorijiy davlatlar qonunchiligi asosida o'rganiladi. BMTning inson huquqlari bo'yicha shartnomaviy organlarining xalqaro huquqda tutgan o'rnini to'liq tadqiq qilish uchun olimlarning fikirlari qiyosiy tahlil qilindi. Maqolada qiyoslash, taqqoslash, tizimlilik va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

TADQIQOT NATIJALARI

Asosiy inson huquqlari bo'yicha xalqaro konvensiyalar Inson huquqlari bo'yicha Umumjahon Konvensiyasidagi qoidalardan ulxom olingan holda vujudga kelgan. Hozirgi paytda asosiy inson huquqlari bo'yicha shartnomalarga quyidagilar kiradi:

Barcha Turdagi Diskriminatsiyani Yo'q qilish to'g'risidagi xalqaro Konvensiya.

Iqtisodiy, Ijtimoiy va Madaniy Huquqlar To'g'risidagi Xalqaro Konvensiya.

Fuqarolik va Siyosiy Huquqlar To'g'risidagi Xalqaro Konvensiya.

Ayollarga Qarshi Barcha Turdagi Diskriminatsiyani Yo'q qilish To'g'risidagi Konvensiya.

Qiynoqlar va Boshqa Vaxshiy, G'ayriinsoniy yoki Qadr-qimmatni Kamsituvchi Munosabat va Jazoga Qarshi Konventsiya.

Bolalar Huquqlari to'g'risidagi Konventsiya.

Barcha Migrant Mehnatkashlar va Ularning Oila A'zolarini Huquqlarini Himoya qilish to'g'risidagi Konventsiya.

Imkoniyati Cheklanganlar Huquqlari to'g'risidagi Konventsiya

Majburan Yo'q Qilishdan Barcha Shaxslarning Himoyalaniishi uchun Konventsiya.

Shartnomaviy organlar yuqorida sanab o'tilgan shartnomalardagi majburiyatlarning davlatlar tomonidan amal qilinishini va implementatsiya qilinishini rag'batlantirish va nazorat qilish uchun tuzilgan.

Shartnomaviy organlar nustaqil ekspertlarning xalqaro qo'mitalari bo'lib, a'zo davlatlar tomonidan to'qizta asosiy inson huquqlari bo'yicha shartnomalarning va ularning qo'shimcha protokollarining implementatsiya qilinishini nazorat qiladi.

Har bir shartnomaning implementatsiya qilinishi unga tegishli bo'lgan qo'mita tomonidan nazorat qilinadi. Qo'mitalar a'zo davlatlardan axbarotlar va nodavlat notijorat tashkilotlaridan ma'lumotlar va boshqa aloqador manbalarga asoslangan holda o'z ishini yurutadi. Hozirgi kunda to'qizta asosiy inson huquqlari bo'yicha shartnomalar va bitta qo'shimcha pratakolning implementatsiyasini nazorat qiluvchi o'nta shartnomaviy organ mavjud. Shartnomaviy organlar o'zlariga aloqador shartnoma bo'yicha belgilangan huquqlarning buzulganligini ham tekshirish huquqiga ega. Ular shu bilan birgalikda tavsiyalar berishi, individual murojatlarni ko'rib chiqishi va vaqt mobaynida vaziyatni nazorat qilishlari mumkin. Shartnomaviy organlarni ajratib turuvchi jihat ularning nazorat qila olish darajasi va ularning vakolatlari. Barcha BMT inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlari shartnomalarda belgilangan majburiyatlarga amal qilinishidagi jarayonda yuz keladigan muammolarni hal qila olish vakolatiga ega.

Belgilangan shartnomalar va qo'shimcha pratakolning bajarilishini nazorat qilishda quyidagi qo'mitalar birlashtirilgan [3].

Irqi Diskriminatsiyani Yo'q qilish bo'yicha Qo'mita – Barcha Turdagi Irqi Kamsitishlarni Yo'q qilish bo'yicha Konventsiya.

Inson Huquqlari Qo'mitasi – Fuqarolik va Siyosiy Huquqlar to'g'risidagi Konventsiya.

Iqtisodiy, Ijtimoiy va Madaniy Huquqlar bo'yicha Qo'mita – Iqtisodiy, Ijtimoiy va Madaniy Huquqlar to'g'risidagi Konventsiya.

Ayollarga Qarshi Barcha Turdagi Diskriminatsiyani Yo'q qilish to'g'risidagi Qo'mita – Ayollarga Qarshi Barcha Turdagi Diskriminatsiyani Yo'q Qilish to'g'risidagi Konventsiya.

Azoblarga Qarshi Qo'mita – Qiynoqlar va Boshqa Vaxshiy, G'ayriinsoniy va Qadr-qimmatni tushuradigan Munosabat va Jazolarga Qarshi Konventsiya.

Bolalar Huquqlari to'g'risidagi Qo'mita-Bolalar Huquqlari to'g'risidagi Konventsiya.

Migrant Mexnatkashlar to'g'risidagi Qo'mita-Barcha Migrant Mexnatkashlar va ularning oila a'zolarining Huquqlarini ximoya qilish to'g'risidagi xalqaro Konventsiya.

Imkoniyati cheklangan shaxslar Huquqlari to'g'risidagi qo'mita-Imkoniyati cheklangan shaxslarning Huquqlari to'g'risidagi Konventsiya.

Azoblarning oldini olish to'g'risidagi Quyi-Qo'mita-Vaxshiy g'ayriinsoniy va qadir-qimmatni yerga uruvchi Munosabat va Jazoga Qarshi Konventsiyaga Qo'shimcha Protokol.

Majburiy Yo'q qilish to'g'risidagi Qo'mita-Majburiy Yo'qotilgan Barcha Shaxslarning Himoyasi uchun Xalqaro Konventsiya [4].

Inson Huquqlari uchun Oliy Komissar Idorasi Shartnomaviy Orginlarning har biri uchun sekretariat sifatida xizmat qilib barcha Qo'mitalar faoliyating samarali olib borilishiga yordam beradi.

Har bir Shartnomaviy Organ o'z faoliyatida Jenevadagi Inson Huquqlari uchun Oliy Komissar Idorasining maxsus xodimlar jamoasi tomonidan beriladigan ko'makni qabul qiladi. Inson Huquqlari uchun Oliy Komissar Idorasida Inson Huquqlari Shartnomaviy Orginlari Bo'limham mavjud.

Yuqorida keltirilgan ushbu bo'lim Shartnomaviy Orginlarni ko'mak bilan ta'minlaydi. Misol uchun huquqiy bilim tatqiqot va tahliliy yordam. Ular shuningdek individual muloqotlarni yozib olishda, jarayon va xabarlar uchun tatqiqotlarni boshqarishda shu bilan birgalikda ommaviy axborot bilan bog'liq muammolarni hal qilishda yordam beradi.

Inson Huquqlari uchun Oliy Komissar Idorasi jamoasining manbalari cheklangan. Misol uchun, yuqoridagi idoraning Murojatlar va Shoshilinch Harakatlar Bo'limi individual murojatlar va shoshilinch harakatlar uchun so'rovlar bilan shug'ullanadi va ular tarkibida sakkista Shartnomaviy Organ uchun yigirmatadan kamroq xodimlar mavjud. Bu esa o'z-o'zidan 1500 dan ortiq individual murojaatlarning ko'rilmadan qolib ketishiga olib keladi. Ular tomonidan yiliga faqatgina 250 ta individual murojaatlar ko'rib chiqilishi imkoniyati mavjud.

Shartnomaviy Orginlarning a'zolari inson huquqlari soxasida tan olingan yuqori malakaga ega mustaqil ekspertlar bo'lib, ular yuqori axloqiy mezonlarga javob beruvchi shaxslar dir. Shartnomaviy Orginlar a'zolari davlatlar tomonidan saylansa ham, ular o'z vazifalarini xolislik va betaraflik prinsiplariga asoslangan xolda bajaradilar. Shartnomaviy Orginlar mustaqil ekspertlar orginlari sifatida faoliyat yuritadi. Ular BMTning Inson Huquqlari Kengashi yuki BMT xafsizlik kengashiga o'xshab siyosiy yoki davlatlar aro orginlar xisoblanmaydi.

Inson Huquqlari bo'yicha shartnomaviy orginlar azolarining betarafligi va mustaqilligi to'g'risidagi Addis Ababa Yo'riqnomalarida qo'mita azolarining neytralligini taminlash uchun bir qancha amaliy protseduralar va prinsiplar belgilangan. Yo'riqnomaga amal qilish harbir shartnomaviy orginning o'ziga bog'liqdir. Ularning ko'pchiligi yo'riqnomani o'zining protsesual qoidalariga qo'shgan yoki ulardan foydalanadi [5].

Har bir shartnomaviy orgin qo'mitalaridagi azolarning soni 10 tadan 25 tagacha farq qiladi. Azolar har 4 yilda shartnomaga aloqador azo davlatlar tomonidan fuqorolari orasidan nomzodi ko'rsatiladi va saylanadi.

Qo'mita a'zolingining yarmi uchun saylov har ikki yilda bo'lib o'tadi. Shartnomaviy organlarning uchtasi a'zolik ko'pi bilan ikki muddat bilan cheklaydi. Boshqa shartnomaviy organlarda hozirgi vaqtda qo'mita a'zolarining qayta saylanishi uchun hech qanday to'siq mavjud emas.

Turli huquqiy tizimlar va madaniyatlardan tashqari adolatli geografik taqsimot barcha shartnomaviy organlar a'zolarining tanlanishida ta'minlanishi kerak ammo Ijtimoiy, Iqtisodiy va Madaniy Huquqlar to'g'risidagi Q'mita geografik kvotani rasmiylashtirib qo'ygan yagona shartnomaviy organ hisoblanadi.

Shartnomaviy organlar a'zolariga maosh to'lanmaydi lekin ular qo'mitalarning uchrashuvlari uchun BMTdan kunlik to'lovlar va nafaqalar oladilar.

TADQIQOT NATIJALARI TAHLILI

Ushbu qismda har bir shartnomaviy organning qisqacha tarifi va uning faoliyati tahlil qilinadi.

Irqiyl Kamsitishlarni Yo'q qilish to'g'risidagi Qo'mita 1970-yilda tashkil qilingan dastlabki shartnomaviy organ hisoblanib, u Irqiyl Kamsitishlarning Barcha Ko'rinishini Yo'q qilish to'g'risidagi Xalqaro Konventsiyaning imlememtatsiyasini nazorat qiladi. BMT Bosh Assambleyasining Uchinchi Qo'mitasida davlatlarning shartnomalarga amal qilishining samaradorligini ta'minlash maqsadida qo'mitalarning shartnomalarning bajarilishini nazorat qilish qoidasi Barcha Turdagi Irqiyl Kamsitishlarni Yo'q qilish to'g'risidagi Xalqaro Konventsiyasiga asoslangan holda yaratilgan. Bu o'z-o'zidan qolgan boshqa barcha shartnomaviy organlarning shakllanishi uchun presedent bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy, Ijtimoiy va Madaniy Huquqlar to'g'risidagi Qo'mita Iqtisodiy, Ijtimoiy va Madaniy Huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Konventsiyaning implementatsiya qilinishini nazorat qiladi. Ushbu qo'mita tarkibiga 18 ta ekspert kiradi va ular yilda ikki marta uch hafta davomida qo'mita uchrashuvlarida ishtirok etadil.

Ushbu qo'mita boshqa qo'miatalar kabi implemwntatsiya qilishni nazorat qilish uchun tuzilmagan BMTning Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi a'zo davlatlarning davriy axborotlari orqali Konventsiyani implementatsiya qilinishini nazorat qiluvchi va iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bilan bog'liq muammolar bilan shug'ullanuvchi asosiy organ hisoblanadi. ECOSOC 1985-yilda davlatlarning axbproylarini tekshirishda yordam berish uchun tashkil qilingan va ushbu organ keyinchalik 1987-yilda Iqtisodiy, Madaniy va Ijtimoiy Huquqlar to'g'risidagi Qo'mitaga aylantirilgan Yuqorida keltirib o'tilgan ushbu farq va qo'mita a'zolarining ECOSOC orqali saylanishini hisobga olmaganda boshqa shartnomaviy organlar va Iqtisodiy, Ijtimoiy va Madaniy Huquqlar to'g'risidagi Qo'mita funksiyalari o'rtasida hech qanday asosiy farq mavjud emas. Shunga qaramasdan, Iqtisodiy, Ijtimoiy va Mdaniy Huquqlar to'g'risidagi Qo'mitaning ham huquqiy statusini boshqa shartnomavi organlar bilan bir xillashtirish maqsadida bir qancha choralar olib borilgan. Bosh Assambleya 2014-yilda ECOSOCga qo'mita a'zolarini saylash tartibini boshqa shartnomaviy organlardagi kavbi a'zo davlatlarning uchrashuvlarida o'tkazilishini tavsiya qildi.

Iqtisodiy, Ijtimoiy va Madaniy Huquqlar yo'g'risidagi Xalqaro Konventsiyaga Qo'shimcha Protokol BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan 2008-yil 10-dekabrda qabul qilingan. Ushbu Qo'shimcha Protokol Iqtisodiy, Ijtimoiy va Madaniy Huquqlar to'g'risidagi Qo'mitaga a'zo davlat yurisdiksiyasiga asoslanib fuqarolar va fuqarolar guruhining murojaatlarini qabul qilish va ko'rib chiqish imkonini berdi. Yuqoridagi vaziyatda a'zo davlat tomonidan Konventsiyada belgilab qo'yilgan fuqarolarning huquqlari buzilgan bo'lishi lozim. Bu shuningdek so'rov protsedurasining yaratilishi uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Iqtisodiy, Ijtimoiy va Madaniy Huquqlar to'g'risidagi Qo'mitasiga shikoyat qilish protsedurasi mavjud bo'lmagan. Qo'shimcha Protokolning qabul qilinishi yillar davomidagi inson huquqlari guruhlari va olimlar harakatlarining natijasi bo'ldi. Qo'shimcha Protokolni imzolash va ratifikatsiya qilishga 2009-yil mart oyidan boshlab imkon berildi va 2013-yil 5-mayda o'nta davlat tomonidan ratifikatsiya qilingandan so'ng kuchga kirdi.

Inson Huquqlari Qo'mitasi Fuqarolik va Siyosiy Huquqlar yo'g'risidagi Xalqaro Konvensiyaning implementatsiya qilinishini nazorat qiladi va ushbu Konvensiyaga birinchi qo'shimcha protokolga muvofiq shikoyatlarni qabul qilish vakolatiga ega. Qo'mita 1976-yilda tashkil etilgan va bir yilda to'rt haftadan uch marotaba uchrashuvlar o'tkazuvchi 18 ta a'zodan iborat. Qo'mita hozirgi paytda sessiyalarini Jenovada o'tkazadi [6].

Ayollarga Qarshi Diskriminatsiyani Yo'q qilish to'g'risidagi Qo'mita 1982-yilda tashkil qilingan. Ushbu Qo'mita Ayollarga Qarshi Diskriminatsiyani Yo'q qilish to'g'risidagi Xalqaro Konvensiyaning implementatsiya qilinishini nazorat qiladi va yuqoridagi konvensiyaga Qo'shimcha Protokolga ko'ra murojaatlarni qabul qiladi.

XULOSA

BMTning inson huquqlari bo'yicha har bir shartnomaviy organi yuqorida ko'rib chiqilganidek belgilab qo'yilgan xalqaro inson huquqlari bo'yicha shartnomalarning davlatlar tomonidan implementatsiya qilinishini va ushbu shartnomalar bo'yicha murojaatlarni qabul qilish va ko'rib chiqish vakolatiga ega hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. General Assembly Resolution 68/268. For information on previous discussions to rectify the legal status of CESCR refer to ISHR's Daily Update of 10 December 007, published during the 6th session of the Human Rights' Council www.escr-net.org/sites/default/files/11_december_2007_0.pdf

2. The acronym HR CTTE ought to be avoided as it's become primarily used to refer to the wholly distinct UN Human Rights Council, which is not a Treaty Body.

3. Conclusions of the 34th meeting of the Chairs of the treaty bodies (30 May to 3 June 2022). Available at: https://tbinternet.ohchr.org/_layouts/15/treatybodyexternal/Download.aspx?symbolno=INT%2fCHAIRPERSONS%2fMCO%2f34%2f34020&Lang=en

4. The concluding observations must respect a limit of 10,700 words (General Assembly Resolution 68/268)

5. The concluding observations of all the treaty bodies can be accessed at: <https://uhri.ohchr.org/en/>

6. See more about the OHCHR capacity building programme at: <https://www.ohchr.org/en/treaty-bodies/treaty-body-capacity-building-programme>